

“QIYOS” KONSEPTINING LINGVOKOGNITIV MAQOMI

Ashurov Mo'min Umarjonovich

ADCHTI

Annotatsiya : *Ushbu maqola "Qiyos" konseptining lingvokognitiv maqomini chuqur tahlil qilishga yo'naltirilgan. "Qiyos" konseptining universalligi, uning turli tillardagi verbalizatorlari orqali namoyon bo'lishi va o'ziga xos tizimni tashkil etishi tadqiq etiladi. Maqolada konseptning kognitiv tuzilishi va lingvistik ifodasi o'rtasidagi munosabatlar yoritiladi, turli tillardagi ifoda usullari qiyosiy tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *"qiyos" konsepti, lingvokognitiv maqom, verbalizator, kognitiv tilshunoslik, o'xshatish, tasviriy vositalar*

“Qiyos” konseptining lingvokognitiv maqomi hususida so‘z borar ekan, avvalambor, uni universal tabiatga ega ekanidan kelib chiqqan holda, uning verbalizatorlari barcha tillarda maxsus tizimni tashkil etadi. Tilshunos olimlardan N.Mahmudov va D. Hudoyberganovalar o‘zining “O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati” kitobida “qiyos” konseptining ahamiyati va o‘rni haqida shunday fikrlarni aytganlar: “Ta’kidlash lozimki, o‘xshatishlar o‘ziga xos obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida yuzaga keladi. Shuning uchun ham ular nutqda hamisha badiiy-estetik qimmatga molik bo‘ladi, nutqning emotsional–ekspressivligi, ifodaliligi, ta’sirchanligini ta’minlashga xizmat qiladi. O‘xshatishlarning ikki turi: 1) individual muallif o‘xshatishlari yoki erkin o‘xshatishlar; 2) umumxalq yoki turg‘un (doimiy) o‘xshatishlar farqlanadi”¹.

Yuqorida keltirilgan fikrlar, “qiyos” konseptini voqelantiruvchi verbalizatorlar uzual va okkazonal jihatlari mavjudligidan dalolat beradi.

Tilshunos olim M.Mukarramov “qiyos” konseptining lingvokognitiv maqomi hususida shunday xulosaga qilgan: “Birorta badiiy asar yuqki, unda o‘xshatish bo‘lmagan. Umuman, badiiy asarning badiiylilik belgisi o‘xshatish, sifatlash, metafora, jonlantirish kabi tasviriy vositalar orqali ifodalanadi”.² “Qiyos” konseptini lingvokognitiv jihatdan lisoniy tadqiq etishga bo‘lgan e’tibor va qiziqish rus tilshunosligida ham eng ko‘p murojaat etilgan mavzulardan biri bo‘lib kelgan. Shunga ko‘ra “qiyos” konseptini universal tabiatililigini ochib berishga eng muhim hissa qo‘shgan olim sifatida V. M. Ogoisevni 1976 yilda nashr etgan ilmiy tadqiqoti orqali ko‘rishimiz mumkin. Olim o‘z ishida qiyosning ahamiyati va universal xususiyatlarini yoritib bergan³.

¹ Махмудов Н, Худойберганова Д, “Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати”.– “Тошкент маънавият”:, 2013.– 56

² Мукаррамов М, “Ўзбек тилида ўхшатиш”.– “Фан” нашриёти Тошкент:, 1976.– 5.

³ Огольцев В.М, Устойчивые сравнения в системе русской фразеологии. Изд. 2–е, испр. и доп. М.: ЦЯ88: Либроком, 2009. 176 с.

M.S.Ivashovaning ta'kidlashicha "qiyos" konseptining lingvistik holati ko'p qirrali va munozarali masala hisoblangan. Zamonaviy tadqiqotchilar esa "qiyos"ni faqat sintaktik jihatdan emas, balki leksik va so'z shakllanishi darajasida ham tahlil qilish kerak deb hisoblaydilar⁴.

I. Levitning fikriga ko'ra, "qiyos kategoriyasini o'rganish qiyos kategoriyasining lingvistik holati haqidagi masalalarni hal qilish bilan bog'liq va uch jihatdan tahlil qilinadi. 1) epistemologik, 2) konseptual yoki mantiqiy 3) lingvistik nuqtayi nazardan o'rganish"⁵. (3- ilovaga qarang)

Bu tahliliy o'rganishlar qiyosning lingvistik maqomini aniqlashda o'z o'rniga ega.

Dunyoning ma'lum bir lingvistik manzarasini universalligi va o'ziga xosligini aniqlashda qiyosning roli juda katta. M.V.Rumyansevaning fikriga ko'ra, "qiyos" konsepti orqali qabul qilinadigan voqelik va boshqalarni baholash mexanizmi ham universal, ham milliy o'ziga xos inson faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u tipologik va individual xususiyatlarga ega bo'lgan dunyoning lingvistik manzarasini yaratishga olib keladi. "Qiyos"ning tildagi ifodasini o'rganish, zamonaviy tilshunoslikdagi tillar va madaniyatlardagi o'xshashliklarni (universal xususiyatlar) yoki farqlarni (milliy xususiyatlar) o'rganishga asos bo'ladi⁶.

Rus tilshunos olimasi G.Denisova qiyosiy birliklarning lingvokognitiv tavsifi va o'zni haqida shunday fikrlarni aytgan: "Qiyos"ning kognitiv roli, qiyosiy birliklarning barcha til quyi tizimlariga kirib borishi, shuningdek, ularning murakkab ichki tashkil etilishi turli tillar materiallari bo'yicha taqqoslashni o'rganishga tinimsiz qiziqishning kelib chiqish sabablarini tushuntiradi"⁷.

V. Maslovaning fikricha, xalqning madaniyati va mentalitet haqidagi ma'lumotlarning eng qimmatli manbasi frazeologizmlar, metaforalar, ramzlar va boshqalardir, ularda asotirlar, afsonalar, urf-odatlar, go'yoki konservatsiyalangan holatda saqlangan bo'ladi"⁸.

Mantiq ilmi sohasida "analogiya" degan tushunchaga ham alohida e'tiborga molik. Bu fan mutaxassislarining ta'kidlashicha, o'xshatish orqali bir belgining ikkinchi birida borligini aniqlab, ularning boshqa o'xshash belgilarga ega ekanini ko'rsatishga aytiladi. Biz bunday vaqtda bu ikki narsa yoki hodisani bir-biriga o'xshatamiz"⁹. Xuddi shu nuqtayi nazardan kelib chiqqanda "qiyos" konsepti insonning olamni idrok etishida va bilishida muhim vazifasi va o'rniga ekanini tushunishimiz mumkin.

Tilshunos olim N.Mahmudovning fikriga ko'ra, "ikki yoki undan ortiq predmet yoki tushunchani o'xshash yoki farqli jihatlarini aniqlash maqsadida qiyoslash, taqqoslash tashqi

⁴ Ивашова М.С. Структурно-семантические особенности сравнительных конструкций во французском и русском языках в их сопоставлении (на материале художественных переводов): автореф. дис. . канд. филол. наук. М., 2009. 26 с.

⁵ Левит И.В. Сложные сравнительные синтаксические конструкции как элемент функциональносемантического поля сравнения: дис. ... канд. филол. наук. СПб., 2005. 166 с.

⁶ Румянцева М.В. Типологические особенности компаративных конструкций (на материале русского и немецкого языков): автореф. дис. . канд. филол. наук. Челябинск, 2007. 22 с.

⁷ Денисова Галина Леонидовна "КОГНИТИВНЫЙ МЕХАНИЗМ СРАВНЕНИЯ В НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКЕ " автореф. диссер. на соискание учёной степени докт. филол. наук Тольятти 2013.

⁸ Маслова В. Лингвокультурология. - М., «Academia», 2001, 3-б.

⁹ Хайруллаев М, Хафёрдиев М. Логика. Предметы ва киска тарихи. - Тошкент, "Укитувчи", 1984, 247-б.

dunyoni bilishning eng keng tarqalgan mantiqiy usullaridan biri sifatida inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida kuzatiladi. Bu behad muhim mantiqiy kategoriya, tabiiyki, tilda ham o‘z aksini topadi”¹⁰.

Turli matnlarda “qiyos” lisoniy vositalarining qo‘llanilishi, ayniqsa rasmiy publitsistik matnlarda, metafora va qiyosning turlarini tanlash matnning janri va mavzusiga bog‘liq bo‘ladi. Assotsiativ-baho va hissiy-estetik metaforalar matn ta’sirchanligini oshirishda va bilvosita amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi¹¹.

Qiyos va o‘xshatishlar birliklari lingvopragmatik va lingvokulturologik, qolaversa, badiiy-uslubiy va lingvopoetik imkoniyatlarga ega bo‘lgan o‘ziga xos konstruksiyalardir. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, badiiy asarlar o‘xshatishni ifodalovchi vositalarsiz bo‘lmaydi. Chunki nutq va matnda “o‘xshatish” yoki “qiyos” konseptual semantikasini ifodalovchi verbal vositalarni o‘rnini ularning o‘zlarisiz qoplash ancha mushkul, ba’zi o‘rinlarda imkonsiz. Balki shu jihatdan “qiyos” konseptual semantikasini ifodalovchi verbal vositalarni tilshunoslikning barcha davrlarida nutqning jozibasini va ta’sir kuchini ta’minlovchi asosiy manba sifatida talqin etilishi, unga bo‘lgan nutqiy talabni doimiy va barqaror bo‘lishida deb tushunish mumkin. Bunga misol qilib, S.Nevelovning quyidagi fikrlarini olishimiz mumkin. “Panini grammatikasidan boshlab (eramizdan oldingi IV asr) qadimgi hind poetikasida o‘xshatishlar poetik figura sifatida o‘rganilgan va u muntazam to‘rt unsurdan iborat: 1) o‘xshatiladigan narsa yoki subyekt, 2) unga o‘xshash bo‘lgan narsa yoki obyekt, 3) o‘xshatish belgisi yoki o‘xshatish asosi va 4) o‘xshatishning formal ko‘rsatkichi”¹².

Asarning badiiy-estetik qiymati, lingvopoetik xususiyati nuqtai nazaridan erkin o‘xshatishlar yozuvchining mahoratini namoyon etuvchi vositalardan biri sifatida badiiy nutqda alohida o‘rin tutadi¹³.

O‘zbek adabiyoti yozuvchilari orasida “o‘xshatishlar ustasi” nomini olgan P. Qodirov, o‘zining aksariyat asarlarida, xususan, “Yulduzli tunlar” romanida ham “qiyos” konseptual semantikasi verbalizatorlarini mohirona qo‘llay olgan va bu orqali o‘quvchida asarda keltirilgan voqealar haqida tasavvur uyg‘ota olgan. P. Qodirov “Yulduzli tunlar” romanida 20 dan ortiq turdagi “qiyos” konseptual semantikasini ifodalovchi verbalizatorlardan 420 dan ortiq nutqiy vaziyatlarda keng foydalangan. Bu hususdagi statistik tahlillarimiz 119 betdagi jadvalda o‘z aksini topgan.

Mazkur asarda “qiyos” konseptining lingvokognitiv maqomi asarning boshdan oxirigacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan va yozuvchi matndagi voqeliklarga adekvat holatda yondasha olish imkonini “qiyos” konseptining verbalizatorlariga murojaat qilish orqali amalga oshirgan. Zero, tilshunos olim M. Konyushkevich ta’kidlaganidek, “qiyos bu anglashning falsafiy toifasi sifatida ham keng talqin etiladi, chunki “til qiyoslash natijalaridan to‘qilgan” va obyektga nom

¹⁰ Махмудов Н. Семантико-синтаксическая асимметрия в простом предложении узбекского языка: Дисс.... док-ра филол. наук. - Тошкент, 1984, 259-6.

¹¹ Махмудов Н. Семантико-синтаксическая асимметрия в простом предложении узбекского языка: Дисс.... док-ра филол. наук. - Тошкент, 1984, 259-6., 11-13

¹² Невелова С. Вопросы поэтики древнеиндийского эпоса. Эпитет и сравнение. – М. «Наука», 1979, ст 38

¹³ Невелова С. Вопросы поэтики древнеиндийского эпоса. Эпитет и сравнение. – М. «Наука», 1979, ст 38

berish, uni aniqlash va taksonomik xususiyatlarning tasvirlashning o'zi uning bilan o'xshashligini o'rnatishdir. Qiyoslash orqali dunyo haqidagi bilimlar va g'oyalar iyerarxiyasi (turkumlash) jarayonini va ongimizda obyektiv voqelik obyektlarining tizimli aloqalari shakllantirilishi amalga oshiriladi"¹⁴.

Demak, badiiy asarni badiiy qiymatini boyituvchi asosiy unsur bu "qiyos" konseptining voqelantiruvchi til vositalaridir. Zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda keltirilgan turli nazariy qarashlardan kelib chiqib, shuni ta'kidlash mumkinki, "qiyos" konsepti matnda ijro etayotgan funksiyasiga va xususiyatlariga ko'ra, u epistemologik, konseptual (mantiqiy) va lingvistik maqomiga ham egadir. Shunisi e'tiborga molikki, yuqorida keltirilgan uchta kategoriya sintaktik kategoriya sifatida lingvistik maqomi bilan ajralib turadi va "qiyos" konsepti matnlarning tuzilishida eng asosiy komponentlar sifatida talqin etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Махмудов Н, Худойберганаева Д, "Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати". – "Тошкент маънавият":, 2013. – 5 б.
2. Мукаррамов М, "Ўзбек тилида ўхшатиш". – "Фан" нашриёти Тошкент:, 1976. – 5.
3. Огольцев В.М, Устойчивые сравнения в системе русской фразеологии. Изд. 2-е, испр. и доп. М.: ЦЯ88: Либроком, 2009. 176 с.
4. Ивашова М.С. Структурно-семантические особенности сравнительных конструкций во французском и русском языках в их сопоставлении (на материале художественных переводов): автореф. дис. . канд. филол. наук. М., 2009. 26 с.
5. Левит И.В. Сложные сравнительные синтаксические конструкции как элемент функциональносемантического поля сравнения: дис. ... канд. филол. наук. СПб., 2005. 166 с.
6. Румянцева М.В. Типологические особенности компаративных конструкций (на материале русского и немецкого языков): автореф. дис. . канд. филол. наук. Челябинск, 2007. 22 с.
7. Денисова Галина Леонидовна "КОГНИТИВНЫЙ МЕХАНИЗМ СРАВНЕНИЯ В НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКЕ " автореф. диссер. на соискание учёной степени докт. филол. наук Тольятти 2013.
8. Маслова В..Лингвокультурология. - М., «Academia», 2001, 3-б.
9. Хайруллаев М, Ҳафердиев М. Логика. Предметы ва киска тарихи. - Тошкент, "Укитувчи", 1984, 247-б.
10. Махмудов Н. Семантико-синтаксическая асимметрия в простом предложении узбекского языка: Дисс.... док-ра филол. наук. - Тошкент, 1984, 259-б.

¹⁴ Конюшкевич М.И. Категория сравнения и её место в системе языка // Вопросы функциональной грамматики: сб. науч. тр. Вып. 4 / под ред. М. И. Конюшкевич. Гродно: ГрГУ, 2001. С. 82–94.

11. Невелова С. Вопросы поэтики древнеиндийского эпоса. Эпитет и сравнение.
– М. «Наука», 1979, ст 38

12. Конюшкевич М.И. Категория сравнения и её место в системе языка // Вопросы функциональной грамматики: сб. науч. тр. Вып. 4 / под ред. М. И. Конюшкевич. Гродно: ГрГУ, 2001. С. 82-94.